




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGI YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	Nurafshon shahar shevasining ayrim dialektal xususiyatlari	
15	Sadoqat RAJABOVA, Ishtixonda yashovchi etnik arablar	246
16	Umarjon QODIROV, Shonazar Shoabdurahmonov – lingvofolkloristika asoschilaridan	249
17	Gulchexra AHATOVA, Toyloq shevasidagi iboralar va ularning ingvomadaniy tahlili	253
18	Hayotxon SOTIMOVA, Xorazm o‘zbek shevalarida oila konseptining urf-odat va marosimlardagi lingvomadaniy ifodasi	260
19	Ramazon ORTIQOV, “Ikkilamchi nominatsiya” tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini	264

3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

1	Hamidulla DADABOYEV, XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470	271
2	Nishonboy HUSANOV, “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648	276
3	Baxtiyor MENGLIYEV, Dilrabo ELOVA Lingvo-mantiqiy ekspertiza: yuridik lingvistikada integrativ yondashuv masalasi	281
5	Muhayyo HAKIMOVA, Milliy tafakkurning abstrkat leksika shakllanishiga ta’siri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MBYM8287	284
6	Nilufar ABDURAXMONOVA, Nasima ABDULLAYEVA, Dialektal birliklarning raqamli korpus modelini yaratish masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723	292
7	Zamira DJURABAYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	297
8	Muyassar XOLOVA, Dialektal korpusda olmosh so‘z turkumining teglanishi	300
9	Anvarbek TURDIALIYEV, Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari	304
10	Gulxayo ISABAYEVA, Sardor JO‘RAQULOV Tog‘ay Murod nasrida dialektizmning o‘rni (Otamdan qolgan dalalar romani misolida)	313
11	Feruza AMINOVA, Badiiy matnda nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi	316
12	Oynisa XOJIYEVA, O‘zbek va turk tillarida paremiologik birliklarning struktur-semantik va funktsional munosabati	320
13	Dildora AMIROVA, “Bobur” antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi	325
14	Kamola NOSIROVA, Dialectological features and lexical layer of alla texts in tashkent region	328

O'ZBEK VA TURK TILLARIDA PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING
STRUKTUR-SEMANTIK VA FUNKTSIONAL MUNOSABATI

STRUCTURAL-SEMANTIC AND FUNCTIONAL CORRELATION OF
PAREMIOLOGICAL UNITS IN UZBEK AND TURKISH LANGUAGES

Oynisa XOJIYEVA,

ToshDO'TAU o'qituvchisi

ORCID ID: 0009-0006-9479-0606

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/QTSV7909

Annotation. *This article is devoted to the study of the linguistic nature and ethnocultural determination of proverbs and idioms, which are considered fundamental structural components of the paremiological system. Paremiology serves as the conceptual basis of a nation's linguistic worldview and represent the verbal manifestation of national culture in language. Through a comparative-typological analysis of the paremiological funds of the cognate Uzbek and Turkish languages, the article illuminates the transformation of common historical, cultural, and ontological perspectives of these peoples. The research examines the structural-semantic similarities and distinctive features of proverbs and idioms within a comparative framework. The comparative analysis, conducted on the material of both languages, serves to reveal specific linguistic patterns, and the findings are synthesized into theoretical conclusions.*

Key words: *paremiology, phraseology, comparativistics, linguistic worldview, Uzbek language, Turkish language, structural-semantic analysis, ethnocultural component.*

Xalqning intellektual salohiyati va etnomadaniy tajribasi paremiologik birliklarda – maqollarda o'zining kontseptual aksini topsa, lisoniy mahorati va nutqiy ekspressivligi frazeologizmlar orqali reprezentatsiya qilinadi. Garchi ushbu janrlar struktural-funksional jihatdan farqlansa-da, ularning o'rtasiga qat'iy demarkatsiya chizig'ini tortish metodologik jihatdan maqsadga muvofiq emas. Zero, paremiyalar dinamik tabiatga ega bo'lib, doimiy intertekstual aloqadorlikda rivojlanadi; ular nutqiy jarayonda o'zaro transformatsiyaga uchraydi va bir-birini semantik jihatdan to'ldiradi.

Tadqiqot aspektlari va milliy yondashuvlar:

O'zbek filologik maktabida maqollar polidistsiplinar obyekt sifatida tilshunoslik, folklorshunoslik va lingvokulturologiya fanlari kesishmasida o'rganiladi. Iboralar esa, asosan, frazeologik aspekt doirasida tor lisoniy yo'nalishda tahlil etiladi. Xususan, turli davrlarda olimlar tomonidan bir qancha “Maqollar to'plami” nashr qilingan. Bundan tashqari, tuzuvchilar Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedovlarning “Ma'nolar maxzani” [Шомақсудов v.b. 2018; 480] to'plamida maqollar alifbo tartibida joylashtirilgan hamda izohi berilgan. To'plam 20 ming maqolni o'z ichiga oladi. Unda maqollarning izohi va muqobillari keltirilgan. Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedovlar tomonidan 1990-yilda chop etilgan “Hikmatnoma” asari [Шомақсудов v.b. 1990; 524] o'zbek tilshunosligi va folklorshunosligida maqollarning ilk izohli lug'ati bo'lib, u 2003-yilda to'ldirilib qayta nashr qilingan.

O'zbek iboralari esa Sh. Shomaqsudov, S. Dolimovlar tomonidan tartib berilgan “Keng uyning kelinchagi” [Шомақсудов v.b. 2020; 640] ensiklopediyasida va “O'zbek tili frazeologik lug'ati” [Rahmatullayev v.b. 2022; 636] da jamlangan. Bu manbalarda faqatgina iboralarni jamlanib qolmay, balki ularning izohlari berilgan va ba'zilarining etimologiyasi ham keltirilgan.

Turk paremiologik segmentida esa paradigma biroz farqli bo‘lib, “atasözleri ve deyimler” (maqollar va iboralar) yaxlit bir tizim sifatida ko‘riladi. Ushbu birliklar fanlararo tadqiqotlarda differensiallanmagan holda tahlil qilinishi an‘anaviy xarakterga ega.

Tarixiy-etimologik va zamonaviy holat: Yaqin davrlargacha turk tilshunosligida ushbu birliklar alohida terminologik nomenklaturaga ega bo‘lmagan va yagona **“darbi mesel”** istilohi ostida birlashtirilgan. Bugungi kunda ham turk tilshunos olimlari maqol va iboralarning o‘ziga xos distinktiv (farqlovchi) belgilarini e’tirof etgan holda, ularni yaxlit bir paremiologik fond sifatida kompleks tadqiq etishni afzal ko‘radilar.

Masalan, turk leksikografiyasida maqollar lug‘ati tarkibiga iboralarning kiritilishi ham inklyuziv yondashuvdan dalolat beradi. Turk ilm olamida tan olingan manbalardan biri bo‘lmish Umar Asim Aksoyning lug‘ati jami ikki jildidan tashkil topgan bo‘lib, birinchi jildda 2675 ta maqol izohlab keltirilgan bo‘lsa [Aksoy 2021; 484], ikkinchi jildda 8977 ta ibora berilgan va sharlangan [Aksoy 2021; 1206].

Turk leksikografik manbalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy lug‘atlarda maqol va iboralarni differensial (alohida) yoki integratsiyalashgan (yaxlit) asosda tizimlashtirish an‘anasi mavjud. Ayrim lug‘atlarda ushbu birliklar umumiy alifbo tartibida diffuz (aralash) holatda berilgan bo‘lsa, boshqalarida struktural jihatdan alohida ruknlarga ajratilgan, biroq yagona korpus (to‘plam) tarkibida reprezentatsiya qilingan.

Garchi janriy tabiatiga ko‘ra farqlansa-da, o‘zbek va turk paremiyalari hamda frazeologizmlari struktur-semantik va funksional-pragmatik jihatdan yuqori darajadagi izomorfizm (o‘xshashlik) bilan xarakterlanadi. Xususan, har ikkala lisoniy tizimda maqollar didaktik funksiyani bajarib, xalqning asriy tajribasi natijasida shakllangan kognitiv hukm va mental aksiomalarni ifodalaydi:

- O‘zbek tilida: “Aybsiz do‘st izlagan do‘stsiz qolar”
- Turk tilida: “Ayıpsız dost arayan, dostsuz kalır” [Xojiyeva 2025; 5].

Frazeologizmlarda esa, aksincha, tilning estetik potentsiali, xalq tafakkurining konseptual-obrazli va ekspressiv-metaforik tabiati aks etadi:

- O‘zbek tilida: ter to‘kmoq
- Turk tilida: ter dökmek.

Sintaktik va struktur tahlil

Kross-lisoniy paradigmda o‘zbek va turk maqol hamda frazeologizmlarining formal-grammatik parametrlari bo‘yicha muayyan distinktiv (farqlovchi) xususiyatlar kuzatiladi.

1. Maqollarning sintaktik modeli

Har ikki tilda ham maqollar tugallangan sintaktik butunlik – predikativlik va modallik xususiyatiga ega bo‘lgan mustaqil gap shaklida shakllanadi. Ular muayyan grammatik markaz(lar)ga ega bo‘lib, tugal intonatsiya bilan realizatsiya qilinadi:

“Do‘sting ming bo‘lsa ham oz, dushmaning bir bo‘lsa ham ko‘p” / “Bin dost az, bir düşman çok”.

Mazkur paremiyalar murakkab sintaktik qurilmaga ega bo‘lib, tarkibiy qismlari zidlov munosabatli polipredikativ (qo‘shma) gap modelini hosil qilgan; har ikki komponent o‘z predikativ markaziga ega bo‘lib, yaxlit konseptual hukmni ifodalaydi.

2. Iboralarning sintaktik modeli

Frazeologik birliklar, maqollardan farqli o‘laroq, sintaktik jihatdan gap darajasida emas, balki leksema (so‘z) yoki nominativ so‘z birikmasi ekvivalentida namoyon bo‘ladi. Iboraning barcha komponentlari yaxlit holda yagona sintaktik funksiyani (gap bo‘lagini) bajaradi:

Boshi ko‘kka yetmoq / başı göğe ermek – semantik jihatdan “sevinmoq” leksemasiga ekvivalent.

Frazeologizmlar statik holatda predikativ markazga ega bo'lmaydi. Biroq fe'l xarakteridagi iboralar nutqiy diskursga kiritilganda, sintaktik kontekstning yakunlovchi qismi – kesim vazifasini bajarib, kommunikativ-grammatik markazga transformatsiyalashadi:

“Bola hushyor tortar, hamishadagiday chol qiyofasidagi “tengdoshi”ning bir narsani boshlashini **ko'ngli sezardi**” [Nazar Eshonqul 2024; 172].

Ushbu gapda “*ko'ngli sezardi*” fe'liy frazeologizmi verbal kesim vazifasida kelib, gapning aktual predikativ markazini shakllantirgan.

Morfologik paradigmada kategoriya va turkumlar tasnifi

Morfologik xususiyatlariga ko'ra, o'zbek va turk iboralarining turkumlararo distributsiyasida o'ziga xos konvergensiya va divergensiya holatlari mavjud.

O'zbek frazeologik tizimida birliklar, asosan, uchta asosiy mustaqil so'z turkumi (fe'l, sifat va ot) doirasida guruhlanadi:

Semantik-morfologik guruh	O'zbek tilida frazeologik birliklar
Fe'liy frazeologizmlar	<i>Nazar solmoq, g'am tortmoq, g'azabi qaynamoq</i>
Sifatlovchi (Atributiv) iboralar	<i>Baxti qora, didi baland, jahli tez</i>
Substantiv (Ot) iboralar	<i>Baxt qushi, bazmi jamshid</i>

Turk tilshunosligida esa frazeologizmlarning morfologik va funktsional-semantik spektri nisbatan kengroq bo'lib, ular nafaqat mustaqil so'z turkumlari, balki pragmatik vazifa yuklangan emotsional-vokalik (undov) va sotsiomadaniy nutqiy shtamlar (nutqiy etiketlar) shaklida ham faol realizatsiya qilinadi:

Turkumi	Turk tilidagi muqobillari	O'zbekcha funktsional ekvivalenti
Substantiv (Ot)	<i>Kış kıyamet, kara haber, karga derneği, çoluk çocuk</i>	Izg'irin qish, qora xabar, g'ala-g'ovur, bola-chaqa
Atributiv (Sifat)	<i>Ateş pahası, dişe dokunur, deli dolu, boynu bükük</i>	qimmat, arzigulik, dali-g'uli, bo'yni egik
Verbal (Fe'l)	<i>Başı ağrımak, göz dikmek, canı çıkmak, altını çizmek</i>	Boshi og'rimoq, ko'z tikmoq, joni chiqmoq, ta'kidlamoq
Undov va Etiket	<i>Geçmiş olsun, haydi oradan, eline sağlık, canına değsin</i>	Shifo bersin, tuyog'ingni shiqillat, qo'lingiz dard ko'rmasin, ajab bo'pti

Semantik tahlil

Maqollarning semantik xususiyatlari

O'zbek va turk maqollari ma'no xususiyatlari va mazmunining o'ziga xosligi jihatidan bir-biriga juda yaqin turadi. Maqollarning ma'nosi keng qamrovli bo'lib, B. Sarimsoqov ularni ma'nosiga ko'ra uch guruhga ajratadi [Саримсоқов 1978; 43]:

1. *Ko'chma, majoziy ma'noda qo'llanuvchi maqollar*. Bunday maqollar o'z ma'nosida tushunilsa, g'aliz mazmun kelib chiqadi. Chunki ular bir butunlikda ko'chma ma'noda kelib, biror ibratli fikrni to'g'ridan to'g'ri emas, balki badiiy obrazli tarzda aks ettiradi. Masalan, “Yotganga yomg'ir yo'qmas” [Mirzayev v.b. 2019; 32] maqolidagi barcha so'zlar ham, maqolning umumiy ma'nosi ham polisemantik xususiyatga ega.

“Ro'zg'or – g'or”, “Tirikchilik sherni ham tulki qilar”, “Kaptar bo'lib tug'ilsang, qarg'a bo'lib o'lma”, “Duvarin kulaği var, gözünü de unutma” (Devorning qulog'i bor, ko'zini ham unutma), “Kar, zararın kardeşidir” (Foyda zararining ukasidir), “Katıra “baban kim?” demişler,

“dayim at” demiş” (Xachirga “otang kim?” desalar, “tog‘am – ot” derkan) [Asoy 2021; 248] kabi maqollarning hammasi ko‘chma ma‘noda qo‘llaniladi.

2. *Dennotativ ma‘nosi ham, konnotativ ma‘nosi ham faol bo‘lgan maqollar.* Bunday maqollarni o‘z ma‘nosida ham tushunish mumkin, ammo ular, asosan, ko‘chma ma‘noda ishlatiladi:

Yolg‘onchi to‘rga bir o‘tar,

Ikkinchi o‘tmas.

Bunday maqollar har ikki xalqda ham talaygina:

Quyvon otolmaganning bolasi arslon otibdi.

Qo‘rqoq itning quyruq‘i qisiq.

Tuyada to‘g‘ri joy bo‘lmas.

Fil o‘lsa ham, tishi o‘lmaydi [Mirzayev v.b. 2019; 257].

Dilin kemiği yok. (Tilning suyagi yo‘q).

El atına binen tez iner. (Begonaning otiga mingan tez tushadi (otdan).

Her taş baş yarmaz. (Har tosh bosh yormaydi).

Her koyun kendi bacağından asılır [Aksoy 2021; 241]. (Har qo‘y o‘z oyog‘idan osiladi).

Yuqoridagi maqollarning barchasi ham o‘z ma‘nosida, ham ko‘chma ma‘noda qo‘llanilishi va shunday tushunilishi mumkin:

3) *faqat o‘z ma‘nosida qo‘llanadigan maqollar.* Bunday maqollarda hech qanday tag ma‘no, kinoya, ort ma‘no bo‘lmaydi. Bunday maqollar ham har ikki xalq folklorida mavjud, lekin ular ko‘p emas:

Bıçak yarası geçer, dil yarası geçmez (Pichoq yarasi bitadi, til yarasi bitmaydi).

Bilmemek ayıp değil, öğrenmemek ayıp (Bilmaslik ayb emas, o‘rganmaslik ayb).

Frazeologizmlarning semantik xususiyatlari

Iboralar maqollardan farqli ravishda doimo konnotativ ma‘no tashiydi. Ibora tarkibidagi jami so‘zlar sintaktik jihatdan birikib yaxlit umumiy mazmun kasb etadi va doimo ko‘chma ma‘noda keladi. Ularni o‘z ma‘nosida tushunish semantik g‘alizlikka yo‘l ochadi:

Bal dök (de) yala = tertemiz.

Yog‘ tushsa yalaguday = top-toza.

Değirmen taşının altından diri çıkar = becerikli.

Tegirmonga tushsa butun chiqadi = uddaburon.

El kiri = para.

Qo‘lning kiri = pul.

O‘zbek – turk maqol va iboralari orasidagi transformatsiya hodisasi

Maqollar o‘zida didaktik ma‘no, hikmatli fikrni ifodalaganidek, ba‘zi iboralarda ham didaktik sema ustunlik qiladi. Bunday iboralar vaqt o‘tishi bilan maqolga o‘tish holatlari kuzatiladi. Yoki xalq orasida iboralarni gap sifatida shakllantirib, maqol ko‘rinishida ishlatish holatlari ham uchraydi:

Cho‘pdan hadik olmoq – ibora, “Ishtonsizning hadigi cho‘pdan” – maqol.

Yotib qolguncha otib qolmoq [Rahmatullayev v.b. 2022; 559] – ibora, “Yotib qolguncha, otib qol. Joni borning umidi bor” [Mirzayev v.b. 2019; 151] – maqol.

Çiğ sut emmiş – ibora, “İnsanoğlu çiğ sut emmiş” – maqol.

Pireye kızıp yorgan yakmak – ibora, “Pireye kızıp yorgan yakma” – maqol.

Ba‘zi o‘zbek maqollarining turk tilida ibora shaklida uchrashi yoki aksincha, turk maqollarining o‘zbek segmentida ibora sifatida qo‘llanilishi ham maqollar va iboralar orasidagi transformatsiyaning uzoq yillarga borib taqalishini ko‘rsatadi:

Ibora	Maqol
Ko‘pga kelgan to‘y	El ile gelen düğün bayramdır

Birinin ipiyle kuyuya düşmek	Birovning arqoni bilan chuqurga tushma
Al gülüm ver gülüm	Bor tovog‘im, kel tovog‘im
Özrü kabahtinden buyuk	Gunohning uzri – gunohdan og‘ir

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek va turk maqollari bilan iboralari asrlar davomida doimiy aloqada bo‘lib kelgan. Ularning o‘zaro tafovutlari mavjud bo‘lib, bular sintaktik va semantik aspektda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ladi. Lekin turli sintaktik va semantik farqlariga qaramay, iboralar ba‘zan maqollarga transformatsiyalashgan. Tarjima jarayonida mana shu transformatsiya hodisasini hisobga olgan holda yondashilsa, har ikki tilda mukammal tarjimalar maydonga kelishiga zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aksoy O. A. Atasözleri ve deyimler sözlüğü, 1. Atasözleri sözlüğü, İstanbul, İnkilap Kitabevi Yayın ve Ticaret AŞ, 2021. – 484 s.
2. Aksoy O. A. Atasözleri ve deyimler sözlüğü, 2. Deyimler sözlüğü, İstanbul, İnkilap Kitabevi Yayın ve Ticaret AŞ, 2021. – 1206 s.
3. Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. Mas’ul muharrir: Sh. Turdimov. – Toshkent: Sharq, 2019. – 257 b.
4. Nazar Eshonqul. Momoqo‘shiq: hikoyalar. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 192 b.
5. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – 636 b.
6. Xojiyeva O. O‘zbek va turk maqollarining tasnifi. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 48 b.
7. Шомаксудов Ш., Долимов С. Кенг уйнинг келинчаги. – Тошкент: Sharq, 2020. – 640 б.
8. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2018. – 480 б.
9. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома / Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзСЭ Бош редакцияси, 1990. – 524 б.

